

**2024 yilning 9-oyligida “O‘zmilliybank” AJda jismoniy va yuridik  
shaxslarning murojaatlari yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni monitoring  
qilish to‘g‘risida**

**MA'LUMOTNOMA**

“O‘zmilliybank” AJning 2024 yilda tasdiqlangan xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligi monitoringi Rejasining 5-bandi ijrosi yuzasidan “O‘zmilliybank” AJda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar monitoring qilindi.

Hisobot davrida:

“O‘zmilliybank” AJning korrupsiya holatlari haqida habar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali jami **19 (o‘n to‘qqiz) ta** murojaat kelib tushgan, shulardan:

- “Call centr” orqali **1 ta** murojaat (Toshkent viloyati -1 ta);
- Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish Boshqarmasining **Ishonch telefoni (78 148-00-89)** orqali **12 ta** (Toshkent shahar - 1 ta , Samarqand - 1 ta, Buxoro - 2 ta, Xorazm – 2 ta, Jizzax - 2 ta, Toshkent viloyati - 1 ta, Surxondaryo - 1 ta, Navoiy - 1 ta, Andijon - 1 ta) murojaat;
- electron pochta (anticor@nbu.uz) orqali **6 ta** murojaat (Qashqadaryo viloyati - 1 ta, Bleiras sh., Latviya - 1 ta, Toshkent shahar - 3 ta, Buxoro - 1 ta).

Boshqa aloqa kanallari orqali murojaatlar kelib tushmagan.

Kelib tushgan murojaatni ko‘rib chiqish natijasida ularda keltirilgan vajlar korrupsion holatlarga taalluqli emasligi sababli Bankning tegishli tuzilmalariga taqdim etildi hamda murojaatchilarga tegishli javob xatlari yuborildi.

Bank xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi haqidagi ma‘lumotlar hamda Bankning kontragentlari va mijozlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari to‘g‘risidagi axborot, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaviy va boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq potensial xatti-harakatlar sodir etilganligi aniqlanmadi.

Axborot va bank xavfsizligi departamenti  
Komplayens nazorat va KQK boshqarmasi  
bosh mutaxassisi



SH.Xudoynazarov

“30“ sentabr 2024 yil